

«UAT» MChJ MRO Russia & CIS 2021 xalqaro ko'rgazmasida ishtirok etmoqda

2021 16 Sentabr

Uzbekistan Airways Technics 15-16-sentabr kunlari Moskvada bo'lib o'tayotgan MRO Russia & CIS 2021 ko'rgazmasida ishtirok etmoqda. MRO 2021 – bu 16-xalqaro ko'rgazma bo'lib, havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni rivojlantirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan.

Tadbir doirasida konferentsiya ham bo'lib o'tishi rejalashtirilgan, unda texnik xizmat ko'rsatish va parvozga yaroqlilik holati va tendensiyalari, soha yetakchilarining so'nggi yutuqlari va yangiliklari, turli xil mamlakatlardan tashrif buyurgan hamkasblar bilan fikr va tajriba almashish imkonini beradi.

Uzbekistan Airways Technics MRO 2021 ko'rgazmasida bor imkoniyatlari, xizmatlar turlari va sertifikatlar haqida ma'lumot berish maqsadida ishtirok etmoqda. Eslatib o'tamiz, hozirgi Uzbekistan Airways Technics majmuasi – Boeing 757/767/787, Airbus 300/310/318/319/320/321 samolyotlariga, dvigatellarga va ularning tarkibiy qismlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha 90-yildan ortiq tajribaga ega kompaniya hisoblanadi.

«UAT» MChJ IATA Operational Safety Audit Programme talablariga javob beradigan IOSA operatori sifatida ro'yxatdan o'tgan va «Uzbekistan airways» AJ tarkibiy bo'linmalaridan biri hisoblanadi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways